

## OILAVIY MUNOSABATLARNING BOLA SHAXSI SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI EMPIRIK O'RGANISH

Irgasheva Nilufar

**Annotatsiya;** Maqolada sog'lom bola ma'naviyatini shakllanishiga oila muhitining ta'siri haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, oilaviy vaziyatni, bola shaxsiga nisabatan ota-onas munosabatini o'rganish maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, tadqiqot natijalari bayon etilgan. Oilada bola shaxsida o'z-o'zini anglashni rivojlantirish maqsadida ota-onalar va o'qituvchilarga tavsiyalar ishlab chiqildi

**Kalit so'zlar:** mehnat, tarbiya, nafosat, rag'batlantirish, ruhlantirish.

### EMPIRICAL STUDY OF PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE INFLUENCE OF FAMILY RELATIONSHIPS ON THE FORMATION OF A CHILD'S PERSONALITY.

Irgasheva Nilufar

**Abstract;** The article discusses the influence of the environment on the development of a healthy child's spirituality. In addition, experimental work was organized to study the situation in the family, the relationship between parents and the child's personality, and the results of the research were summarized. Recommendations are developed for parents and teachers to develop self-awareness in the child's family.

**Keywords:** work, upbringing, refinement, encouragement, inspiration.

### ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ВЛИЯНИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА.

Иргашева Нилуфар

**Аннотация:** В статье говорится о влиянии окружающей среды на духовность здорового ребенка. Кроме того, были организованы эксперименты по изучению ситуации в семье, взаимоотношений между родителями и детьми, подведены итоги исследования. Разработаны рекомендации для родителей и педагогов по развитию самосознания в семье ребенка.

**Ключевые слова:** труд, образование, уточнение, лечение гнева, вдохновение.

**Kirish** Barkamol inson tarbiyasini tashkil etish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari boshlagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida ulkan yutuqlarga erishishga undagan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Shu bois, mamlakatimizda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni muhim masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda.

O'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlodning zimmasida ekan, ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan etib shakllantirish hayot tajribasiga ega, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug'larimiz, faxriyalarimizning, shu bilan birga mazkur ishga da'vat etilgan tarbiyachilar, muallimlar, olimlarning va umuman barchaning asosiy vazifasi bo'lib qoladi. Bu borada yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar muammolari instituti, iste'dodlarni tanlash markazlarining tashkil etilishi yoshlarni ma'naviy va jismoniy shakllantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash, rag'batlantirish borasida davlatimiz olib borayotgan siyosatning namunasidir.

Yoshlar jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday voqeliklarga o'zgacha, ruhiy hiskechinmalar doirasida munosabat bildiradilar, qiyinchiliklar vujudga kelganda esa ehtiroslarga beriladilar. SHuning uchun bizning oldimizda turgan muhim masala - yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash, bunda oiladagi tarbiya bilan birgalikda jamoatchilikning uzviy hamkorligini ta'minlash taqozo etiladi.

Oilalardagi psixologik muhitni sog'lomlashtirish, ota-onalarning psixologikpedagogik savodxonligini rivojlantirish ertangi kunimizning davomchilari bo'lgan sog'lom avlodni tarbiyalashdek muhim vazifani samarali amalga oshirishning eng asosiy omilidir.

**Muhokama va natijalar** Oilaviy qadriyatlarning bir-biriga mos kelishi, funktsional-rolli o‘zaro muvofiqlik, ijtimoiy - rolli adekvatlik, mikroijtimoiy munosabatlarga moslashuvchanlik, emotsional to‘yinganlik, oilaviy munosabatlarni uzoq muddat davom etishiga intilish va boshqalar oilaning psixologik salomatligini kompleks tarzda baholash mezonlari hisoblanadi [1]. Oiladagi muhim masalalardan biri bo‘lmish emotsional qo‘llab-quvvatlashning muvaffaqiyatli kechishi eng avvalo, oila a’zolarining yaqinlari bilan shaxslararo munosabatlari hamda ulardagi emotsional fonnинг qulayligini saqlab qolishiga intilishlariga bog‘liqdir. Oilaviy munosabatlarga moslashish oilaning kattalarni ish kunidan so‘ng oilani ijtimoiy-psixologik muhitiga moslasha olishi bilan tavsiflanadi.

Har qanday sog‘lom oilaning ajralmas qismi - bu oilaviy maqsadlarning yagonaligidir. Maqsadga erishish usullarini tanlash va uning shakllanishi hamda kutilayotgan natijalarda har bir oila a’zosining ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari, istak-xoxishlari va ustakovkalari namoyon bo‘ladi. Uzoq umr birga bo‘lishga intilish doimo oilaviy maqsadlarga qiziqish, ularni aqlan rejalashtirish va maqsadga erishishi uchun butun oila a’zolari faolligining ta’minlashni o‘zida mujassamlashtiradi. Oilaviy yakdillik - bu oilaning emotsional va kognitiv “Biz”idir. Oilaviy yakdillik shaxsning o‘z-o‘zini anglashi bilan bog‘liq va “Biz”ga qarshi “Men”ni namoyon qilishi mumkin. Oilaning barqarorligi “o‘zgarishlardagi o‘zini saqlab qolish” bilan bir xil bo‘lib, keyinchalik taraqqiy etish uchun oilaviy nizolarni nazorat qilish va hayotiy o‘zgarishlarga moslasha olishi, oilaviy yakdillikni saqlay olishi bilan tavsiflanadi.

**Adabiyotlar tahlili** Zardushtiylikning qadimgi kitobi-“Avesto”da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er-xotinning farzand tarbiyasi to‘g‘risidagi bir qator fikrlar bayon etilgan [3]. XI asr buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig”-“Saodatga boshlovchi bilim” kitobida farzand ko‘rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir. Lekin, bu narsa ota-onaga juda katta mas’uliyat yuklaydi, uning uddasidan chiqmoq har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir - deydi [4]. Olim oilaviy tarbiya bola axloqiy taraqqiyotining asosi deb hisoblagan. Rus psixolog V.I.Silevanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o‘rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onaning o‘z bolalariga g‘amxo‘rligining

samarisidir degan xulosaga keladi [5]. A.Y.Varga va V.V.Stolinning fikriga ko‘ra, “ota-onas munosabati”-bu bolaga bo‘lgan rang-barang tuyg‘ular tizimi, xulq-atvor streotiplari, ular bilan muloqot ular bilan muloqot qilish amaliyoti bola shaxsi uning xulqi xarakterini tushunish va qabul qilish xususiyatidir[6]. Hozirgi kunda psixologlar sotsiologlar va keng jamoatchilik tomonidan oila va oilaviy tarbiya muammosi dolzarb masala sifatida e’tirof etib kelinmoqda. Jumladan E.G‘oziev, V.M.Karimova, B.K.Qodirov, N.Sog‘inov G‘.Shoumarov singari psixologlar tomonidan o‘zbek oilalarining ijtimoiy-psixologik masalalariga doir tadqiqotlar olib borilgan [7].

**Xulosa** Oilaviy munosabatlар, ayniqsa ota-onas va farzandlar o‘zaro aloqalari jamiyat yuzaga keltirgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan. Jamiat rivojlanib borgan sari bu muammolarning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Chunki, insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan oila muhitida, ota-onas va farzandlar munosabatlari tizimida boshqa har qanday ijtimoyi institutlar orasidagi uzviylik sifatida olib qaraganda ko‘proq darajada o’zlashtiriladi va an‘ana, ma‘naviy meros tarzida avloddan-avlodga o’tadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акрамова Ф.А. “Оилада муомалани ташкил этиш психологияси” Т.: “Шамс ACA” 2006. 90-бет.
2. Каримова В.М. Оилавий ҳаёт психологияси Т.: 2006 172 бет "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz November 2024 / Volume 5 Issue 11 ISSN 2181-0842 / Impact Factor 4.182 181
3. Салаева М.С. “Ўзбек оилаларида ота-она ўзаро муносабатларининг ижтимоий психологияк хусусиятлари” Автореферат Т-2005 4. Файзиева М, Жабборов А “Оилавий муносабатлар психологияси” Т.: “Янги аср авлоди” 2007.
4. Titarenko V.Ya. Oila va shaxsiyatni rivojlantirish. M., 1987.352 b.
5. Kempbell R. Bolalarni qanday sevish kerak. - M.: 1992. - 189 b.
6. Baumrind D. Ijtimoiylashtirish orqali instrumental kompetentsiyani rivojlantirish. // Pick AD (ed) Minnesota Press, 1973, 7 p.
7. Karabanova O.A. Oilaviy munosabatlар psixologiyasi. - Samara: SIOKPPI nashriyoti, 2001. - 122 p.